



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA 5-6 YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA YO'NALTIRISH BO'YICHA METODIK XIZMATNI TAKOMILLASHTIRISH

Rizayeva Munisxon Maxkamovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
"maktabgacha va musiqiy ta'lim" kafedrası dotsent v.b.(PhD)

ORCID: 0009-0008-3093-971X



Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish, ularning kasbiy dunyoga nisbatan hissiy munosabatini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bolalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda turli kasblarga oid faoliyatlar, suhbatlar va o'yinlarni tashkil etish hamda o'yinga asoslangan ta'lim muhitini yaratishning amaliy mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy rivojlanish, kasbga yo'naltirish, qobiliyat, mehnat, kasb-hunar, hissiy munosabat, shakllanish, intellektual rivojlanish, hamkorlik, o'yinga asoslangan ta'lim, metodik ta'minot, ta'lim muhiti.

Abstract: This article examines the practical mechanisms of career guidance for preschool children, focusing on developing and improving their emotional attitudes toward the world of professions. It also substantiates approaches to organizing profession-oriented activities, conversations, and games based on children's interests, as well as creating a play-based educational environment.

Key words: social development, career guidance, ability, labor, profession, emotional attitude, formation, intellectual development, cooperation, play-based education, methodological support, educational environment.

Аннотация: В данной статье обоснованы практические механизмы профессиональной ориентации детей дошкольного возраста, развития и совершенствования их эмоционального отношения к миру профессий, организации различных видов деятельности, бесед и игр с учётом интересов детей, а также создания игровой образовательной среды.

Ключевые слова: социальное развитие, профессиональная ориентация, способности, труд, профессия, эмоциональное отношение, формирование, интеллектуальное развитие, сотрудничество, игровое обучение, методическое обеспечение, образовательная среда.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda kasbiy o'zini o'zi belgilash muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hayot sur'atlarining jadallashuvi va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida mehnat bozori yangi kasblar bilan tobora boyib bormoqda. Bunday sharoitda inson uchun o'z qobiliyati va imkoniyatlariga mos kasbni ongli ravishda tanlash tobora murakkablashmoqda. Zamonaviy maktabgacha ta'lim pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biri bolaning har tomonlama, erkin va uyg'un rivojlanishi uchun qulay hamda samarali ta'lim muhitini yaratishdir. Bola shaxsining shakllanishida, uning intellektual va emotsional dunyosini boyitishda o'yin faoliyati yetakchi o'rinni egallaydi. O'yin shunchaki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki bolaning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, uning erkinligi va shaxsiy tashabbusini namoyon etuvchi murakkab psixologik-pedagogik jarayondir.

Kasb-hunarga yo'naltirish uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, maktabgacha ta'lim uning boshlang'ich bo'g'inini tashkil etadi ^[1]. Aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kasblar haqidagi dastlabki bilim va tasavvurlar shakllanadi. Ular turli kasblarning mazmuni va xilma-xilligi bilan tanishadilar. Bola qanchalik ko'p va mazmunli ma'lumotga ega bo'lsa, kelajakda kasb tanlash bo'yicha ongli qaror qabul qilishi shunchalik osonlashadi. Kasbiy yo'nalishning poydevori aynan bolalik davrida qo'yiladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat va kasblar olami haqidagi tasavvurlarni shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir.



Bolalarni kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi – ularning kasbiy dunyoga nisbatan hissiy munosabatini rivojlantirish, turli faoliyat va kasblarda o'z qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun sharoit yaratish hamda individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik yondashuvni tashkil etishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari kasblar haqidagi dastlabki bilimlarni shakllantirishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolalar kasblarning xilma-xilligi va ularning jamiyat hayotidagi o'rni bilan tanishadilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim sohasiga oid zamonaviy tadqiqotlarda bolalarni erta yoshdan kasbga yo'naltirish masalasi pedagogik hamda psixologik yondashuvlar asosida keng o'rganilgan.

Abdullaeva Sh. A. o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tizimida kasbiy tarbiya va kasbga yo'naltirishning nazariy asoslarini yoritib, tarbiyalanuvchilarni erta kasb tanlashga tayyorlashda pedagogik shart-sharoitlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Psixolog olimlar ham mazkur masalaga katta e'tibor qaratganlar.

Jumladan, Bojovich L. I. bolalik davrida shaxs shakllanishining o'ziga xos jihatlari ochib bergan bo'lsa, Vigotskiy L. S. ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit va pedagogik ta'sirning bolaning kasbiy qiziqishlariga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan ^[2].

N. N. Zaxarovning fikriga ko'ra, erta kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi bolada kasbiy dunyoga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish hamda unga mavjud faoliyat doirasida o'z imkoniyatlarini namoyon etish imkonini yaratishdan iborat ^[3].

E. Ginsberg kasbiy tanlov jarayonini bolaning hissiy va intellektual rivojlanishi bilan bog'laydi hamda uni uch bosqichga ajratadi: xayoliy davr (4-11 yosh), sinov va izlanish davri (11-17 yosh) hamda realistik davr (17-21 yosh) ^[6].

E. A. Klimov o'z tadqiqotlarida kasbiy o'zini o'zi belgilash tushunchasini tahlil qilib, insonning kasbiy ontogenezini mehnat subyekti sifatida tavsiflaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, 3 yoshdan 6-8 yoshgacha bo'lgan davrda o'yin faoliyati inson faoliyatining asosiy mazmunini o'zlashtirish usuli hamda turli kasblar (haydovchi, shifokor, sotuvchi, o'qituvchi va boshqalar) bilan dastlabki tanishuv vositasi hisoblanadi.

V. A. Klimovning ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda nafaqat o'yin faoliyatini, balki o'z-o'ziga xizmat qilish va oddiy mehnat faoliyatini ham maqsadli tashkil etish zarurligi asoslab berilgan. Muallifning fikricha, kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki yosh xususiyatlariga mos tashkil etilgan pedagogik faoliyat natijasida rivojlanadi.

B. G. Ananyev, L. I. Bojovich, A. N. Leontyev, M. I. Lisina va boshqa olimlarning tadqiqotlari maktabgacha yosh davrida shaxsning motivatsion sohasi jadal rivojlanishini ko'rsatadi ^[7].

Shunday qilib, o'tmish va zamonaviy tadqiqotchilar ilmiy qarashlari maktabgacha yoshda kasbga yo'naltirishning zarur va maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- maktabgacha ta'limda erta kasbga yo'naltirish bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining muhim shartlaridan biri hisoblanadi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda kasbga yo'naltirish jarayoni ularning dunyoqarashi, ijtimoiy tasavvurlari hamda kattalar mehnati va kasblari haqidagi bilimlarining shakllanishi bilan bevosita bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kasblar bilan tanishtirishning asosiy maqsadi ularda kasblarga qiziqish uyg'otish, bilim va tasavvurlarini boyitish hamda sog'lomlashtirish va chiniqtirish faoliyatlari orqali jismoniy sifatlarini (chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik), kognitiv jarayonlarni, ijtimoiylashuvni va ijodkorlikni rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, mazkur jarayonni tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud.

Klimov E. A. kasbiy o'zini o'zi belgilash psixologiyasida kasbga yo'naltirishni ilk yosh davridan boshlash muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

Elkonin D. B. tadqiqotlarida esa o'yin faoliyati bolalarda kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida e'tirof etilgan.

- **3-4 yosh.** Ushbu yosh bosqichida kattalar mehnatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bolalar o'zlari tushunadigan kasblar (tarbiyachi, tarbiyachi yordamchisi, musiqa rahbari, shifokor, sotuvchi, oshpaz, haydovchi, quruvchi) bilan tanishtiriladi. Mehnat faoliyati, mehnat natijalari haqidagi tasavvurlar kengaytiriladi va boyitiladi. Kasb egalariga nisbatan hurmat hissi tarbiyalanadi, kattalarga yordam berishga undaladi hamda ularning mehnat natijalariga ehtiyotkorona munosabat shakllantiriladi.



- **4-5 yosh.** Bolalar yaqinlarining kasblari bilan tanishtiriladi, ularning mehnatining jamiyatdagi ahamiyati tushuntiriladi. Ota-onalarning qayerda ishlashi, ularning mehnati jamiyat uchun qanchalik muhimligi haqidagi tasavvurlar chuqurlashtiriladi va kasblarga qiziqish rivojlantiriladi.
- **5-6 yosh.** Bolalarda kattalar mehnati, uning natijalari va ijtimoiy ahamiyati haqidagi tasavvurlar yanada kengaytiriladi. Inson mehnati bilan yaratilgan narsalarga hurmat hissi shakllantiriladi hamda bolalarda mehnat qilayotgan insonlarga nisbatan minnatdorlik tuyg'usi rivojlantiriladi ^[4].

Mazkur yo'nalishda quyidagi asosiy muammolar mavjud.

Birinchi muammo – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga yo'naltirish faoliyatini tashkil etishda davlat va nodavlat sektorlar o'rtasida sifat mezonlarining yagona tizimga solinmaganligidir. Agar sifat nazorati faqat tashqi tekshiruv yoki hujjatlar bilan cheklansa, ta'lim jarayonining haqiqiy natijalarini baholash qiyinlashadi. Shu sababli sifat monitoringi bolalar rivojlanishi, pedagogik jarayon mazmuni, xavfsiz ta'lim muhiti, ota-onalar bilan hamkorlik hamda pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qamrab olishi lozim.

Ikkinchi muammo – kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda metodik yondashuvlarning barqarorligi yetarli darajada ta'minlanmaganidir. Kasb mavzularini bolalarning yoshi va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, metodik qo'llab-quvvatlanishi hamda ota-onalar bilan hamkorlik tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa ta'lim sifati barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Uchinchi muammo – davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida ilg'or tajribalarni almashish mexanizmlarining yetarli emasligidir. Amaliyotda kasbga yo'naltirish bo'yicha samarali metodik tajribalar ko'pincha alohida tashkilot doirasida qolib ketmoqda. Shu bois hududiy metodik platformalar, klasterlar hamda raqamli metodik resurslar bazasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metodik ta'minotni yaratish bosqichida pedagoglar uchun ta'limiy faoliyat ishlanmalari, rivojlantiruvchi o'yinlar, metodik tavsiyalar, diagnostik materiallar hamda ota-onalar bilan ishlash bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqiladi. Sifat monitoringi bosqichida bolalar rivojlanishi, pedagog faoliyati, xavfsizlik, ota-onalar qoniqishi va boshqaruv samaradorligi bo'yicha indikatorlar belgilanadi. Olingan natijalarni tahlil qilish hamda korreksion qarorlar qabul qilish kasblar bilan tanishtirish jarayonining uzluksiz takomillashuvini ta'minlaydi.

Kasbga yo'naltirish natijasida quyidagi rivojlanish yo'nalishlari kuzatiladi:

1. **Ijtimoiy-emotsional rivojlanish** – empatiya, his-tuyg'ularni boshqarish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.
2. **Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalarining rivojlanishi** – o'z fikrini aniq ifodalash, faol tinglash va muloqot madaniyatini shakllantiradi.
3. **Intellectual rivojlanish** – mantiqiy fikrlash, muammolarni hal etish va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi.
4. **Ijodiy (kreativ) rivojlanish** – kreativ va tanqidiy fikrlashni, yangi g'oyalarni yaratish hamda ijodkorlikni rivojlantiradi.

Kasbga yo'naltirishning amaliy qadamlari quyidagilardan iborat:

1. **Qiziqishlarni kuzatish** – bolaning bo'sh vaqtida qanday faoliyat bilan shug'ullanishini kuzatish hamda hayotiy tajribani o'yin asosida egallashini qo'llab-quvvatlash.
2. **To'garaklarga jalb qilish** – sport, san'at, robototexnika va boshqa yo'nalishlardagi mashg'ulotlarga bolaning yoshi, qobiliyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib jalb etish.
3. **Kasblar bilan tanishtirish** – turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, ish joylariga ekskursiyalar tashkil etish hamda ota-onalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bolalarni kasbga yo'naltirish pedagoglar uchun muhim va keng qamrovli faoliyat yo'nalishi hisoblanadi. Bola qanchalik ko'p va mazmunli ma'lumotni o'zlashtirsa, uning kasb tanlash bo'yicha ongli qaror qabul qilish imkoniyati shunchalik ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish ularning bilim va tasavvurlarini real hayot tajribasi bilan boyitishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni

kasblar bilan tanishtirish mehnat tarbiyasi, o'yin faoliyati, ko'rgazmalilik tamoyili, ijtimoiy muhit hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Bunda pedagog bolalarning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni kasblar olamiga bosqichma-bosqich jalb etishi zarur.

Olib borilgan kuzatuvlar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Kasbga yo'naltirish bo'yicha eng samarali ta'lim metodlarini amaliyotga keng joriy etish.
2. Kasbga yo'naltirishga xizmat qiluvchi rivojlantiruvchi predmetli muhitni yaratish.
3. Har bir bolaning qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi faoliyatni tashkil etish.
4. Tarbiyalanuvchilar bilan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish orqali ularning "Men" konsepsiyasi va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 23-dekabr. <https://lex.uz/docs/-5179335>

Abdullaeva, Sh. A. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2020.

Кондрашов, В. П. Введение дошкольников в мир профессий. – Балашов: Николаев, 2004.

Ahmedova, L. A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar // Maktabgacha va maktab ta'limi ilmiy-metodik jurnali. ISSN: 3060-4613. – 2025. – № 10. – B. 1306-1311.

Захаров, Н. Н. Профессиональная ориентация школьников. – Москва: Просвещение, 1988. – 272 с.

Климов, Е. А. Психология профессионального самоопределения. – Москва: Академия, 2010. – 304 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.